AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRINI O‘RGANISHDA MANBALAR TALQINI VA MUAMMOLARI.

O ‘zbekiston Milliy universiteti

tarix fakulteti 2-kurs magistranti

Nematova Zarnigor Kamol qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘z davrida yirik davlat barpo eta olgan buyuk sarkarda Amir Temur davri manbalari va ularni o‘rganishda yuzaga keluvchi muammolar yoritilgan. Shuningdek, maqolada Amir Temur va Temuriylar davlati davri tarixini o‘rganishda qo‘laniladigan yozma manbalarning tarixshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli manbalar qiyosiy-tanqidiy yondashuv asosida o‘rganilib, ularning ideologik, siyosiy va madaniy xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, temuriylar, tarixshunoslik, manbashunoslik, diplomatik munosabatlar, savdo aloqalari.

Kirish. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida kuchli davlat qura olgan Amir Temur shaxsiyati va uning davlat boshqaruv faoliyati jahon tarixida muhim o‘rin egallaydi. Mazkur davrni o‘rganishda tarixiy manbalarning o‘rni kattadir. Biroq ushbu manbalarning mazmuni, ularning yozilish sharoiti va mualliflarning pozitsiyasi turlicha bo‘lganligi sababli tarixiy voqealarning talqini bir xil emas va bu holat asl tarixni yoritishda bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi.

Ushbu davrga oid manbalarni asosan ikki katta guruhga bo‘lish mumkin – mahalliy manbalar va xorijiy manbalar. Mahalliy manbalarda hukmdor shaxsi ulug‘lanib, ortiqcha bo‘rttirishlar bo‘lganligi, shuningdek, yozilish shakli murakkab bo‘lganligi tufayli tadqiqotlarda biroz qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy[1], Nizomiddin Shomiy[2] singari shaxslarning asarlarida

Xorijiy manbalarda esa koʻproq kuzatuvchanlik va xolislik) Rui Gonsales de Klavixo[3]) va baʼzan tanqidiy ruh (Ibn Arabshoh[4]) ustunlik qilgani sababli bu manbalarni oʻrganish nisbatan osonroq. Shunday boʻlsada, xorijiy asarlarni oʻrganishda ham bir qancha muammolar yuzaga keladi.

Mazkur holat tarixshunoslikda manbalarni tanqidiy oʻrganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois maqolaning asosiy maqsadi Amir Temur davriga oid manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularning talqinidagi muammolarni aniqlash, temuriylar davri manbalari tarixiy haqiqatni aks ettiradimi yoki ular siyosiy-diplomatik diskurs (voqea haqida shakllangan fikr va tushuncha) mahsulimi degan savolga javob izlashdan iborat.

Asosiy manbalar va ularning xususiyatlari. Amir Temur davrini oʻrganishda garchi ortiqcha boʻrttirishlar va hukmdorlarni ulugʻlab yozilgan boʻlsada, mahalliy manbalar muhim ahamiyatga ega. Ular orasida eng mashhurlaridan biri 1424-1425-yillarda yozilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”[5] asari boʻlib, unda Sohibqiron faoliyati, tashqi siyosati, savdo yoʻllari, elchilik munosabatlari keng va batafsil yoritilgan. Shuningdek, bir mucha Xalil Sultonning hukmdorlik yillarini ham yoritib beradi[6]. Boshqa manbalardan farq qilishiga kelsak, asar Amir Temur vafotidan salkam chorak asrdan soʻng yaratilgani bois haqiqiylikka yaqin va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan, temuriylar saroyiga yaqin muhitda yozilganligi sababli hukmdorning siyosati va shaxsiyati koʻproq ijobiy tarzda talqin etilgan. Asar bir nechta tillarga tarjima qilingan va to shu vaqtga qadar qayta-qayta koʻchirilgan. 1972-yilda A. Oʻrinboyev tomonidan chop etilgan nusxaviy-tanqidiy matni eng mukammali hisoblanadi[7].

Bundan tashqari, 1401-10402-yillarda Sohibqironning sodda va avom xalq uchun tushunarli qilib yozilishi kerakligi haqidagi buyrugʻi[8] asosida yozilgan Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma”[9] asari ham muhim manba hisoblanadi. Asar bilan tanishilgan soʻng shuni aytish mumkinki, Amir Temur

davriga nisbatan yaqinroq davrda yozilganligi va o‘sha davrning yozilish tartibiga amal qilingani bois asarni ilmiy tahlil qilish biroz mushkul. Ammo shunday bo ‘lsada, tarixiy haqiqatga yaqin deb baholanadi.

Ushbu davr tarixini o‘rganishda xorijiy manbalarni ham tahlil qilish lozim. Bunday manbalardan esa eng muhimi - Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”[10] asari bo‘lib bu asar voqealarning aniqligi, ortiqcha mulozamatlar va bo‘rttirishlardan holiligi bilan ajralib turadi. 1404-1406-yillarda Amir Temur davlatiga elchi sifatida tashrif buyurgan Klavixoning safar kundaligida temuriylar davlatining diplomatik munosabatlari va elchilarni kutib olish tartibi, bazmlar, etnografik va diplomatik ma’lumotlar, shuningdek, asarda geografik, hukmdor oilasi, saroy a’yonlari hamda xalqning madaniy hayotini yoritib beruvchi muhim ma’lumotlar bor.

Yana bir xorijiy manbalardan biri bu Xitoy manbalari orasida juda muhim, hisoblanuvchi “Ming shilu” qaydnomalaridir (1368-1644). Ushbu 2965 bobdan iborat ulkan solnomada temuriylar davlati bilan diplomatik va savdo aloqalari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Asarni o‘rganish taxminan 1930-yillarga borib taqaladi. Gen Xingfu[11], Chen Xuelin[12], Wolfgang Franke[13] kabi tarixchi olimlar asarni qismlarga bo‘lib tarjima qiladilar. O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi sharqshunos tarixchi N.Karimova tomonidan ham tahlil qilinib bir qancha ilmiy ishlar mavjud bo‘lib aksariyati rus tilida chop etilgan[14]. Ushbu solnoma o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Amir Temur shaxsiga tanqidiy ravishda yondashgan tarixchi – ibn Arabshoh tomonidan 1436-1437-yillarda yozilgan O‘rtas Osiyo va O‘rta Sharq tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi “Ajoyib al-maqdur”[15] asari bizga voqeliklarni o‘rganishda katta yordam beradi. XVII asrdan turi tillarga (turk, lotin, inliz fransuz) tarjima qilinib, unda keltirilgan ma’lumotlar ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z izini qoldirgani ham ushbu asarning naqadar qimmatli ekanining tasdig‘idir[16]. Chunki,

uning asari hukmdorni ulug‘lash, havoyi so‘zlar bilan maqtovlardan holilikda yozilgan. Aksincha, asarda Amir Temur shaxsiyatiga anchagina salbiy ta’riflar berib o‘tilgan. Buning sababi, ibn Arabshohning oilasi Amir Temjur farmoyishi tufayli majburan Samarqandga ko‘chirilganidir.

Manbalar talqinidagi qarama-qarshiliklar.

Amir Temur davrini o‘rganishda eng muhim muammolardan biri manbalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. Xususan, Xitoy manbalarida Temuriylar tomonidan yuborilgan sovg‘alar “xiroj” sifatida talqin qilinadi. Bunga misol qilib N. Karimovaning[17] maqolasiga nazar tashlasak: Unda keltirilishicha Amir Temur tomonidan yuborilgan ot, nefrit toshi va ko ‘plab buyumlar “Ming shilu” da “xiroj” va “o‘lon” sifatida qayd etilgan[18]. Ammo Xitoy imperatori ham bunga javoban turli sovg‘alar, ipak matolar, qog‘oz pullar va qimmatbaho liboslar hadya qilgan[19]. Biroq sharq manbalarida bu hodisa diplomatik sovg‘a almashinuvi sifatida izohlanadi[20]. Bu muammoga xolislik nuqtayi nazaridan yozilgan Klavixoning “Kundalik” asarida qiziq bir ma’lumot keltiriladi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra Amir Temur avvaliga Xitoy imperiyasiga soliq to‘lagan. Ammo oxirgi yetti yil davomida hech qanday soliq to‘lanmagan, Xitoydagi ichki siytosiy muammolar sababli ular ham o‘lpon to‘lashi kerakligi haqida elchilar jo‘natib gohlantirmagan. Klavixo missiyasi bilan bir vaqtda kelgan xitoylik elchilar ana shu to‘lanmagan soliq haqida xabar berish uchun kelishgani, bu esa Sohibqironga yoqmagani, elchilarni ispan elchilardan quyiroqqa o‘tirishga buyruq beradi, hattoki, ularni qatl ettirish bilan qo‘rqitganiga guvoh bo‘ladi[21].

Yana bir muhim jihat – Amir Temur shaxsining baholanishidir. Ba’zi manbalarda u adolatli va dono hukmdor sifatida tasvirlansa, boshqalarida esa bosqinchi sifatida talqin qilinadi. Bu esa mualliflarning siyosiy va madaniy pozitsiyasiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Shu sababli tarixiy haqiqatni aniqlashda bir nechta manbalarni solishtirib o‘rganish zarur.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davrini o‘rganishda tarixiy manbalar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning talqini murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Manbalar o‘rtasidagi tafovutlar mualliflarning subyektiv qarashlari, siyosiy manfaatlari va yozilgan davr sharoiti bilan bog ‘liq.

Shu bois zamonaviy tarixshunoslikda manbalarni tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish muhim metod sifatida qaraladi. Faqatgina turli manbalarni solishtirish orqali tarixiy haqiqatga yaqin xulosalarga kelish mumkin.

Shuningdek, “Ming shilu” qaydnomalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, mahalliy manbalarni voqeliklarni o‘zgartirmagan holda hozirgi o‘zbek tiliga moslashtirish va ortiqcha bo‘rttirishlarni olib tashlab qisqartirish tadqiqotlarda birmuncha afzalliklarni yuzaga keltiradi deb aytish mumkin. Chunki, yosh tarixchilarda ushbu asarlarni tahlil qilishda birmuncha qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ammo bu faqatgina manbalar bilan ilk tanishuv uchun amal qilinsa maqsadga muvofiqdir. Chunki manbalarning asl nusxasi doimo muhim va o‘rganilishi shart.

Amir Temur va Temuriylar davlati davri tarixshunoligi kelgusida ham chuqur o‘rganishni talab etadigan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

“Amir Temur tarixi” Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur. I-II qismlar. \ Arab tilidan tarjima va izohlar, so ‘zboshlovchi muallif U.Uvatov; mas’ul muharrir A.O ‘rinboyev. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2019. – 512b.

Gen Xingfu (根幸夫). Mingdai shi yanjiu wenxian mulu (明代史研究文献目录.Min sulolasi bo‘yicha tadqiqotlar bibliografiyasi.). –东京: 东洋文库明代史研究室 (Dongjing: Dongyang wenku Mingdai shi yanjiushi), 1960年.

Franke W. The Ventable Records of the Ming Dynasty (1368-1644) // Historians of China and Japan. Beasley W.G., Pulleyblank E.G. eds. – Oxford: Oxford University Press,1961. – P.76-77.

Rossabi M. The Ming and Inner Asia // Central Asiatic Journal. Central Asiatic Journal. – 1972. – Vol.8. – P.221-246.

Rui Gonsales de Klavixo. Amir Temur Ispaniya elchisi nigohida. – T.: “Zamin nashr” nashriyoti, 2019. B-176.

Samarqand nefrit savdosi to’g’risidagi “Minsh shilu” ma’lumotlari. Natalya Karimova Tarix fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. OrientalJournal of Social Sciences. 15-08-2025. https://www.supportscience.uz/index.php/ojss 112-128-b.

Zafarnoma. Sharafuddin Ali Yazdiy. So‘z boshi, tabdil, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi va nashrga tayyorlovchilar: A.Ahmad, H.Bobobekov, mas’ul muharrir B.Eshpo‘latov. Nashrlar va matbaachilar guruhi: I.Shogulomov va boshq. \\ T. : “SHARQ” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. 1997. – 384b.

Zafarnoma. Nizomiddin Shomiy. Toshkent: “Fan”. Nashriyoti, 2019. – 544b.

Xinjiang difang lishi ziliao xuanji (新疆地方历史资料选辑. Избранные материалы по историографии Синьцзяна). – 北京 (Beijing): 人民出版社, 1987. – 654b.

Chen Xuelin (陈学霖). «Ming shilu» yu Ming chu shishi yanjiu («明实录»与明初史事研究. Ming shilu solnomasi va Min sulolasining dastlabki davr tarixiy

voqealarini tadqiq etish. // Hanxue yanjiu zhi huigu yu qianzhan (汉学研究之回顾与前瞻.Xitoyshunoslik sohasidagi tadqiqotlarning retrospektiv tahlili va istiqbollari.). – 北京: 中华书局 (Beijing: Zhonghua shuju), 1995 年

ДАННЫЕ «МИН ШИЛУ» О ТОРГОВО-ПОСОЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЯХ ИМПЕРИИ АМИРА ТЕМУРА И ДИНАСТИИ МИН. N.Karimova. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 184-190b.

СОЧИНЕНИЕ «МИН ШИЛУ ЛЭЙЦЗУАНЬ. ШЭВАЙ ШИЛЯО ЦЗЮАНЬ» – ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ВНЕШНИХ СВЯЗЕЙ ДИНАСТИИ МИНN.Karimova. Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations" https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-462-469